



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2017 yil yanvar-dekabr

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **5,5 foizga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **1,9 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar **1,3 barobarga ko'proq**

2017 yil yanvar-dekabr oylari yakuni bo'yicha Surxondaryo viloyatida 2099 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,8 foizga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,6 foizga ko'paygan hamda ularning soni 1625 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 5,5 foiz (716 ta) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 13719 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Termiz shahrida (20,6 foiz), Denov (11,6 foiz), Jarqo'rg'on (7,9 foiz) va Termiz (7,0 foiz) tumanlarida kuzatilmoqda.


Surxondaryo viloyati

(ming birlikda)



Korxonalar va tashkilotlar

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,8 f.p), savdoda (-1,2 f.p) hamda boshqa turlarda (-0,6 f.p.dan) kamayganligi, buning natijasida axborot va aloqada (+0,1 f.p), sanoatda (+0,9 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,1 f.p.), qurulishda (+0,7 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda(+0,9 f.p.), shuningdek tashish va saqlashda (+0,6 f.p) faoliyat turlarida ulushining o'sishiga olib keldi.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,2 foizni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,8 foizni tashkil etganligini korsatmoqda va bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 1,9 f.p. kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,4 foiz savdoda, 12,2 foiz sanoatda, 10,7 foiz qurulishda, 6,6 foiz qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,2 foiz yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,7 foiz tashish va saqlash, 1,7 foiz axborot va aloqa, 1,6 foiz sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,9 foiz boshqa faoliyat turlari

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) foizda

